



## INTERNET TILINING LINGVISTIK TADQIQ QILINISHI

**Bo'riyeva Lobar Abdullayevna,**  
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi  
E-mail: lobarburiyeva84@gmail.com

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18449808>

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada XXI asrda keng tarqalayotgan internet tilining o'ziga xos xususiyatlari va til xususiyatlari ochib berilgan. Internet tili og'zaki va yozma nutqdan iborat bo'la olishi va turli lingvistik va ekstralingvistik vositalardan foydalanish mumkinligi haqida fikr yuritilgan.*

***Kalit so'zlar:** internet tili, antroposentrik paradigma, nutq, og'zaki nutq, yozma nutq, nutqiy faoliyat, mim, emoji.*

***Аннотация.** В данной статье раскрываются специфические особенности и лингвистические характеристики интернет-языка, широко распространенного в XXI веке. Рассматривается возможность использования различных лингвистических и экстралингвистических инструментов для формирования интернет-языка.*

***Ключевые слова:** интернет-язык, антропоцентрическая парадигма, речь, устная речь, письменная речь, речевая деятельность, мимика, эмодзи.*

***Annotation.** This article reveals the specific features and linguistic characteristics of the Internet language, which is widespread in the 21st century. It is considered that the Internet language can consist of oral and written speech and that various linguistic and extralinguistic tools can be used.*

***Key words:** internet language, anthropocentric paradigm, speech, oral speech, written speech, speech activity, mime, emoji.*

## KIRISH

Jahon tilshunosligida so'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlarda tilni undan foydalanuvchi inson omili bilan o'zaro uyg'unlikda, uning nutqiy faoliyati, ijtimoiy hamda ruhiy-hissiy holati bilan bog'liqlikda o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada antroposentrik paradigma nomi ostida birlashuvchi qator tilshunoslik yo'nalishlari vujudga keldi hamda o'z tadqiq metodologiyasi va tahlil usullariga ega bo'ldi. Ayni shu sohalardan biri lingvistik ekspertologiyadir. Dunyo tilshunosligida muloqot xulqi, shaxs nutqi masalalari muhim tadqiqot obyekti sanaladi, chunki u nutq vaziyati, shaxsning nutqiy faoliyati, ruhiyati, ijtimoiy holati, yoshi, jinsi, olamni idrok etish tarzi, diniy-mifologik qarashlari, ijtimoiy siyosiy hayotiga doir asosli xulosalar chiqarishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda muloqot xulqini tilshunoslikning so'nggi yutuqlari asosida o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlar muloqot



xulqining psixolingvistik o'ziga xosliklarini aniqlashda nazariy jihatdan dolzarb hisoblanadi<sup>1</sup>.

Globalashuv jarayoni insonlararo muloqotning virtual shakllarini ham jadallashtirdi. Bu esa ijtimoiy tarmoq yozishmalarini ham muhim axborot almashinuv maydoniga aylantirdi. Shu ma'noda lingvistik ekspertizada ijtimoiy tarmoq yozishmalarida kishi ruhiy holati, axborotni uzatishdagi kommunikativ maqsad, hamda bunda lingvistik vositalarning qo'llanilishi, leksik birliklarning tanlanishi masalasi dolzarb ahamiyatga ega. Bugun axborot ekspansiyasi, madaniy gegemonlik, madaniy imperializm kabi iboralar qo'llanilmoqda. Unda yangi ma'daniy tamoyillarga ko'r-ko'rona ergashish, hukmron madaniy axloqqa bo'ysunish kabi hodisalar kuzatilmogda. Ushbu jarayon nafaqat kattalar, hatto bolalar psixologiyasiga ham ta'sir qiladi<sup>2</sup>. Bu esa ijtimoiy tarmoq matnlarini yangi yondashuvlar asosida tekshirish zaruratini paydo qiladi.

Ijtimoiy tarmoqlarning geosiyosatdagi ishtiroki kundan kunga ortib bormogda va uning yangi qirralarini vujudga keltirmogda, chunki u axborot tarqatish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga ta'sir ko'rsatishda muhim vositaga aylandi. Shu bilan birgalikda, mafkuraviy jarayonlarga ham ta'sir o'tkazgan holda geomafkuraviy muhitni yaratmogda<sup>3</sup>.

Aynan ijtimoiy tarmoq matnlari lingvistik ekspertizasi borasida ilmiy tadqiqot olib borgan ekspert-mutaxassis N. Soliyeva ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra ijtimoiy tarmoq matnlari ekspertizasining quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatadi:

- yashirin agressiya, separatizm, populizmning mavjud/mavjud emasligi;
- yakka/guruh manfaatlarini ustun qo'yishga harakatning mavjud/mavjud emasligi;
- ijtimoiy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi gaplarning mavjud/mavjud emasligi; xalqning milliy, etnik o'ziga xosligiga daxl qiluvchi, xalqning mentalitetiga nomuvofiq fikrlarning mavjud/mavjud emasligi;
- qonunga qarshi xatti-harakatlarga undash mazmunining mavjud/mavjud emasligi<sup>4</sup>.

Ijtimoiy tarmoq matnlari axborot manbai sifatida tadqiq qilingan dissertatsiyalarda masalaning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'proq e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarning geosiyosiy maqsadlarni amalga oshirishda

<sup>1</sup> Mamajonov M.Yu. Muloqotning psixolingvistik tadqiqi. Filol. fan. fals. dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2025. – 55 b.

<sup>2</sup> O'lmasxo'jayev Z.A. Globalashuv sharoitida shaxs ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashining shakllanishiga ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri. Siyosiy. fan. fals. dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 53 b.

<sup>3</sup> Madrahimov A.U. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ma'naviy-ahloqiy tarbiyasiga ta'siri. Falsafa. fan. fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Buxoro, 2025. – 54 b.

<sup>4</sup> Soliyeva N.A. Ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar lingvistik ekspertizasi. Filol. fan. fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Qo'qon, 2025. – 54 b.



manipulatsion vosita ekanligi bayon etiladi. Masalaning ushbu jihatlari ham ijtimoiy tarmoq matnlarini bevosita lingvistik ekspertologiya va psixolingvistikaning tadqiq obyektini bo‘la olishini ko‘rsatadi. Xorijda ijtimoiy tarmoq matnlari foydalanuvchilarning ruhiy holatini ko‘rsata oluvchi vosita sifatida psixolingvistik tadqiqotlar obyektini sifatida tekshiriladi. Boisi tarmoq matnida (post. Forumlar, kommentariya, chat yozishmalari) muallifning ruhiy-emotsional holati bevosita yoki bilvosita aks etishi mumkin. Xorijlik tadqiqotchilar B.O‘Di (B.O‘Dea) va boshqalar tomonidan ijtimoiy tarmoq matnlarida depressiya, xavotir, o‘z joniga qasd qilish bilan bog‘liq ruhiy buzilish yoki patologiya holatlarining aks etishi psixolingvistik tahlillar orqali tekshirilgan<sup>5</sup>. Ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot ham axborot almashinuv jarayonidir. Hozirgi davrda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish juda tez юююбюsur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Bunga WhatsApp, Facebook, Twitter, YouTube, Instagram, Telegram, TikTok va boshqa platformalar misol bo‘la oladi. Ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy davrda muloqotning asosiy inqilobiy vositasiga aylandi. Internet tarmog‘i orqali muloqot qilish imkoniyatlarining kengligi ijtimoiy tarmoqlarni har qanday yoshdagi – bolalar, o‘smirlar va hatto keksalar orasida ham – ochiq va erkin suhbatlashish maydoniga aylantirdi.

### XULOSA

Ijtimoiy tarmoqlar orqali inson boshqalar bilan erkin muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu muloqot *status yangilash, izoh yozish, tanqid bildirish, qo‘pol so‘zlar ishlatish yoki boshqalarni haqorat qilish* shaklida bo‘lishi mumkin.

### Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59.
2. Абдурахмонов Д. Фонетик вариантли, синоним ёки шевалараро лексик фарқ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1988. – №6. – Б. 33-38.
3. Азизов О. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 176 б.
4. Аликулов З.А. Аббревиатуры в узбекском языке: Автореф. ... дис. канд. филол. наук. – Ташкент, 1976. – 23 с.
5. Аракин В.Д. Об основных типологических единицах языка // Лингвистическая типология и восточные языки «Иностранные языки в вузах Узбекистана», 1975. Вып. — 8. — С. 100 – 127.
6. Аликулов Т. Полисемияларнинг ҳосил бўлиши ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1963. – №3. – Б.51-56.

<sup>5</sup> O‘Dea B., Boonstra T. W., Larsen M. E., Nguyen T., Venkatesh S., Christensen H. The relationship between linguistic expression in blog content and symptoms of depression, anxiety, and suicidal thoughts: a longitudinal study // Journal of Affective Disorders. – 2021.